

## FACTORS FOR FORMING CONSTITUTIONAL LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Jabborova O. M.

Associate Professor of Chirchik State Pedagogical University

Ashurova D. R.

Student of Chirchik State Pedagogical University

### ABSTRACT

The article analyzes the factors that shape the constitutional literacy of primary school students.

**Keywords:** education, primary, constitution, student, formation, knowledge, factor.

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KONSTITUTSIYAVIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Jabborova O.M.

Chirchqiy Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti

Ashurova D.R.

Chirchqiy Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy savodxonligini shakllantirish omillari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, boshlang'ich, konstitutsiya, o'quvchi, shakllantirish, bilim, omil.

O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish jarayoni kechmoqda. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy savodxonligini shakllantirish vazifasi qo'yildi [1]. Shu sababli bu o'rinda boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy savodxonligini shakllantirish omillari tahliliga e'tiboringizni tortamiz.

*1. Bilim berish.* Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilariga konstitutsiyaviy asoslarning negizlari bo'yicha bilim berilishi kerak. Shu sababli mazkur masalada o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqish taqozo etiladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bu borada quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- boshlang'ich sinf o'quvchilariga Konstitutsiyamizning eng asosiy tushunchalari, qoidalari va normalari bo'yicha bilim berish;
- o'quvchilarga konstitutsiya asoslarini sodda, tushunarli va qulay shakllarda tushuntirish;
- o'quvchilarning konstitutsiyani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarkib toptirish.

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilariga konstitutsiya asoslari bo'yicha bilim berish imkoniyatini beradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf pedagoglari mazkur asoslar bilan tanishtirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. *Ko'nikma berish*. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilariga konstitutsiya asoslari bo'yicha ko'nikma berish kerak bo'ladi. Bunday ko'nikmani shakllantirishning o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sabli bu borada quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- o'quvchilarning ongini konstitutsiyaviy tushunchalar asosida shakllantirish(masalan, ularda xuquq va manfaat uyg'unligini tarkib toptirishg);
- o'quvchilarning ahloqini shakllantirish( masalan, ularning ahloqida burch, mas'uliyat kabi fazilatlarning tarkib topishiga erishish);
- o'quvchilarni konstitutsiya asoslarini qiziqish bilan o'zlashtirishiga erishish(masalan, ularga konstitutsiya tushunchalarini tushuntiruvchi hikoyalarni o'qib berish).

Bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy tushunchalar bo'yicha ko'nikmasini maqsadli shakllantirishga olib keladi [2].

3. *O'quvchilarni yo'naltirish* . Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilari konstitutsiya asoslarini qiziqish bilan o'zlashtirishga yo'naltirilishi kerak. Bu borada o'ziga xos yondashuvlarga asoslanish taqozo etiladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra, bu borada quyidagilarga amal qilish kutilgan samarani beradi:

- o'quvchilarni konstitutsiyaning asosiy tushunchalari bo'yicha rasmlar chizish va hikoyalar tuzishga yo'naltirish;
- o'quvchilarning konstitutsiyaviy tushunchalar bo'yicha baxslar va bellashuvlar o'tkazishga yo'naltirish;
- o'quvchilarning konstitutsiya tushunchalarini o'zlashtirganligini rag'batlantirish bo'yicha o'qituvchilarni yo'naltirish.

Shu sababli bunday yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarini konstitutsiya asoslarini o'rganish uchun maqsadli yo'naltirish imkonini beradi.

Kezi kelganda ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy savodxonligini shakllantirish omillari rang-barang va xilma-xildir. Shu sababli bu borada eng maqbul metodlarga asoslanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstitutsiyaviy savodxonligini shakllantirib borish omillari muntazam tadqiq etib borilishi kerak. Bu borada oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf pedagoglariga nazariy bilim, amaliy ko'nikma va kasbiy malaka berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

## REFERENCES

1. Mirziyoyev SH.M Konstitutsiyaviy islohotlarimizning bosh maqsadi-inson qadri, xalq manfaatini amalda ta'minlashdir // "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2022-yil 21-iyun soni.
2. Jabborova O. Boshlang'ich ta'lim metodikasining yangi nazariy masalalari. –Toshkent, 2022.
3. Жабборова, О., Ташпулатова, Д. (2021). Бoшланғич синф ўқитувчиларининг малака талаблари. *Ekonomika i sotsium*, 5(84).
4. Каримжонов, А., Жабборова, О. (2021). Ян Амос Коменскийнинг таълим-тарбияга оид қарашлари. *Ekonomika i sotsium*, 5(84).
5. Жабборова, О. М., Ахмедова, Н. Ш. (2021). Бoшланғич синф ўқувчиларини миллий ғоя асосида тарбиялаш омиллари. *Ekonomika i sotsium*, 4(83).

6. Jabborova, O. M. (2021). Systems for The Development of Primary Education in The Process of Higher Pedagogical Education. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(04), 449-453.
7. Jabborova, O. M., & Mardonov, Sh. Q. (2021). Ta'lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari. *Xalq ta'limi jurnali*, 2.
8. Жабборова, О. М. (2021). Мураккаб шароитларда бўлажак тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий тайёрлаш. *Ekonomika i sotsium*, 4(83).
9. Жабборова, О. М. (2021). Бошланғич таълимда интеграциялаш масалалари. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 702-706.
10. Жабборова, О. М., Бахтиёрова, С. Э. (2021). Бошланғич таълим йўналишида хорижий тилларни ўқитишнинг янги ёндашувлар тизими. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 1040-1045.
11. Жабборова, О. М., Ташпулатова, Д. М. (2021). Ўзбекистон янги мафкурасининг педагогик талқини. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 584-589.
12. Жабборова, О. М., Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошланғич синф ўқитувчиларига қўйиладиган талаблар. *Academic research in educational sciences*, 2(2).